

ALISHER NAVOIYNING BADIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi

Nizomiy nomidagi TDPU talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning badiiy asrlarida qo'llanilgan badiiy san'atlardan (talmih, irsoli masal, savolu javob, tajnisi xatti) namunalar tahlil etilgan. Nazariy ma'lumotlar Alisher Navoiy asarlaridan keltirilgan misollar bilan asoslangan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, lirik va epik timsollar, badiiy san'atlar, talmih, irsoli masal, savolu javob, tajnisi xatti, she'riy san'atlar.*

*"Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz"*⁵.

Sh.M. Mirziyoyev

Ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asardan o'rin olgan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyliigi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan⁶.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur

⁵ <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar->

⁶ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. -T.,1999. -B.4.

dahosining ko'lamini, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan. She'riy san'atlar muayyan badiiy tamoyillarga asoslangan. Bulardan eng muhimi she'riy san'atlarning asar mazmuni bilan uzviy bog'liqligi sanaladi.

She'riy san'atlarni qo'llashda me'yor masalasi ham juda muhimdir. Ya'ni she'rda haddan tashqari san'at qo'llash maqbul bo'lmaganidek, ularga e'tiborsizlik bilan qarab, asardagi g'oyalarni, fikrlarni badiiy bezaklarsiz ifodalash ham she'r qimmatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasizdir.

She'riy san'atlarning har biri muayyan g'oyaviy-badiiy niyatga xizmat qilishi lozim.

She'riy san'atning qimmatini baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan ham belgilanadi.

She'riy san'atlar, avvalo, mantiqiy zaminga ega bo'lishi, ya'ni qo'llanayotgan san'at hayot mantiqiga mos kelishi, unga zid bormasligi shart.

She'riy san'atlarga qo'yiladigan talablarning yana biri ularda ifodalangan timsollarning o'quvchilar ommasiga tushunarli bo'lishidir. Bu timsollarni o'quvchi anglab yetmasa, ular o'z mohiyatini yo'qotishi muqarrar.

Yana bir talab she'riy san'atlarning nafosat qoidasiga ham muvofiqligi, har qaysi badiiy lavha, timsolning o'quvchida go'zal his-tuyg'ular, tasavvurlar uyg'otishi zarurligidir.

Adabiyotshunosligimizda she'riy san'atlarni ma'naviy va lafziy san'atlarga ajratish an'ana bo'lib kelgan. Ma'naviy san'atlar asardagi g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qiladi.

Talmih (nazar solmoq) san'ati she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san'atidir. Shoirlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiy va Uzro", "Tohir va Zuhro" kabi qissalar dostonlarning qahramonlari nomiga ishora qiladilar. O'quvchi u yoki bu nomga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo'lgan g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. Zero bu jarayonda o'quvchi o'zi mutoala qilayotgan asar qahramoni hayoti, tuyg'ulari, ma'naviy qiyofasini o'sha mashhur qissa, afsona qahramoni bilan qiyoslaydi.

*Ilohiy, tuman ming bu **Horun** kibi,
Ne **Horunki**, **Ashku Faridun** kibi⁷.
(21-bet)*

⁷Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991. -B.21.

Riqobingda chovush o'lub Jabrail,

Bu ma'nig'a me'roj shomi dalil.

(26-bet)

Chekib xoma "Layliyu Majnun" sari,

Yuz ofat solib tog'u homun sari.

(49-bet)

Filotunu Suqrot o'lub bir taraf,

Arastuyu Buqrot o'lub bir taraf.

(347-bet)

Biri ulki, yuz lutf erur zotig'a,

Ki "Farhodu Shirin" erur otig'a.

(477-bet)

Eshittimki, Chingizu Xorazmshoh,

Adovatqa chun bo'ldilar kiynaxoh.

(137-bet)

Yana erdi Shopub bin Ardasher,

Ki shohe edi kordonu daler.

(77-bet)

She'riyatimizda Sharqda keng mashhur bo'lgan muhabbat qissalari, ularning qahramonlari nomlariga ishora qilish ham juda ko'p uchraydi.

Irsoli masal "maqol kiritish" ma'nosini bildirib, she'riyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish san'ati sanaladi.

She'riyatda qo'llangan maqol hamma vaqt ham aynan o'zgarishsiz qo'llanavermaydi. Ko'pincha maqollar ayrim tahrirlar bilan she'r mazmuniga singdirib yuboriladi.

Ki "Bu ish butarg'a topildi jihat,

Ne nav' emdi dono ko'rar maslahat?"

Duo aylabon surdi dono maqol,

Ki: "Ey shavkatingg'a falak poymol!

(240-bet)

Hamul go'y otilg'och qochib yak-bayak,

Masaldurki: "ming qarg'aga bir kesak"

(218-bet)

"Ki bilgilki olam vafosizdurur,

Ne olamdatur-ham baqosizdurur".

(479-bet)

Savolu javob⁸-she'r misralarida ikki shaxs, ko'pincha oshiq bilan mahbuba o'rtasidagi savol va javobni aks ettirish usuli. She'riyatimizda bu usuldan keng

⁸ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.-B.61.

foydalanilgan. Savolu javob usuliga liro-epik she'riyatda ayniqsa keng murojaat qilingan. Quyida Saddi Iskandariy dostonidan "Iskandar bila ul gadolig' ixtiyor etgan podsho, balki filhaqiqat podsholiqqa yetgan gado hikoyati" dan parcha keltirilgan:

*Dedi: "Bu so'ngaklardin afsona et,
Ne so'rsam, javobin aning yona et"!
Dedi "Go'rlardin qilurda guzar,
Necha bu so'ngaklarga soldim nazar.
Dedi:"Himmat o'lmish manga hamnishast,
Sen istardek, ermas, vale asru past⁹.*

(93-bet)

"**Tajnisi xatti**". "Yozuv tajnisi" ma'nosini ifodalovchi bu san'at arab yozuvidagi so'zlarning nuqtalardan tashqari to'la mosligiga asoslanadi, ya'ni ikki so'z arab yozuvida yozilganida nuqtalari jihatidagina farqlanadi.

*Sovrulubon ko'k bir etak kul (كل) kibi
Qo'zg'alib anjum bir ovuch gul (گل) kibi.*

(101-bet)

*Dovulg'a bo'lub to'ppi yanglig' bari (برى),
O'tog'a bosh uzra sariq qush pari(پرى).*

(155-bet)

*Eli hech tinmay yasab sozu barg (برگ),
Muhayyo qilib javshanu xudu targ (ترگ).*

(151-bet)

*Mubohot etib taxt ila toj (تاج) anga,
Berurlar edi shohlar boj (باج) anga.*

(80-bet)

*Aningdek alar boshiga yog'di tosh (تاش),
Kim ul toshdek tushti tuproqqa bosh(باش) .*

(409-bet)

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, badiiy san'atlar asarda ilgari surilayotgan g'oyalarni yorqin ifodalash, lirik va epik timsollarni hayotiyroq gavdalantirish, ularning ma'naviy qiyofalari, his-tuyg'ularini ta'sirchanroq aks ettirishga xizmat qiladi, hamda asarning til nuqtayi nazardan jozibadorligini, ohangdorligini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir.

⁹ Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy.-T., 1991. -B.93.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyobonida so'zlagan nutqidan. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar>
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. -T., 1991.
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. -T., 1992.
4. Amonov U. Adabiyot nazariyasi. -Buxoro, 2008.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.-T.,1999.
6. A'ZAMXONOV S.X.TA'LIM JARAYONIDA O'QITUVCHI FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI | O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI
<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>